



## AHOLINI BANDLIGINI TA'MINLASH, DAROMADINI OSHIRISH, KAMBAG'ALIKNI QISQARTIRISH

Amirova Dilshoda Hasan qizi <sup>1</sup>

Xurramov Jasur Baxrom o'g'li <sup>2</sup>

Amirova Dilnoza Hasanovna <sup>3</sup>

<sup>1</sup> Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish insituti talabasi

amirovadilshoda111@gmail.com +998972438179

<sup>2</sup> O'zbekiston Milliy universiteti talabasi  
xurramovjasur2022@gmail.com

<sup>3</sup> Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali  
amirovbobomurod305@gmail.com , +998937978179  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6793381>

### ARTICLE INFO

Received: 28<sup>th</sup> June 2022

Accepted: 01<sup>st</sup> July 2022

Online: 02<sup>nd</sup> July 2022

### KEY WORDS

Aholi bandligi, xususiy tadbirkorlik, yakka tadbirkorlik, daromad.

### ABSTRACT

*Mustaqillik yillarida aholi turmush darajasini oshirish, munosib ish o'rinlari bilan ta'minlash hamda kadrlar tayyorlash masalalariga katta e'tibor berilmoqda. Ushbu maqolada so'ngi yillarda aholini bandliginoi ta'minlash, daromadini oshirish hamda kambag'illikni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ma'lumotlar berilgan.*

Mustaqillik yillarida aholi turmush darajasini oshirish, munosib ish o'rinlari bilan ta'minlash hamda kadrlar tayyorlash masalalariga katta e'tibor berilmoqda. Shu bilan birga, samarali iqtisodiy islohotlar hamda intellektual salohiyat bilan bog'liq bo'lgan sohalardagi bir qator ijobiy o'zgarishlar natijasida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishilmoqda.

Mehnat bozorida yoshlarga qaratilayotgan alohida e'tibor bois, jami aholiga nisbatan ish bilan ta'minlash ulushi yuqori bo'lmoqda. Ularga jamiyatda munosib o'rin topishiga ko'maklashish va tashabbus ko'rsatib mehnat qilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yildi. Yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan yoshlar esa, barcha sohalarda o'z qobiliyatini namoyon etmoqda. Binobarin, mamlakat taqdiri uchun mas'uliyatni chuqur his etadigan,

mustaqil va yangicha fikrlaydigan yosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish vazifasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mehnat bozorida yoshlarga qaratilayotgan alohida e'tibor bois, jami aholiga nisbatan ish bilan ta'minlash ulushi yuqori bo'lmoqda. Ularga jamiyatda munosib o'rin topishiga ko'maklashish va tashabbus ko'rsatib mehnat qilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yildi. Yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan yoshlar esa, barcha sohalarda o'z qobiliyatini namoyon etmoqda. Binobarin, mamlakat taqdiri uchun mas'uliyatni chuqur his etadigan, mustaqil va yangicha fikrlaydigan yosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish vazifasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.



Respublikada har yili aholi bandligini ta'minlash bo'yicha tasdiqlanadigan dasturlarni amalga oshirish, bo'sh va kvotalanadigan ish o'rinlariga ishga joylashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, o'zini o'zi band qilishning samarali shakllarini rivojlantirish borasida ta'sirchan chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Aholining ishchanlik faolligini va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirishga, ijtimoiy zaif qatlamlar bandligini ta'minlashga, aholi bandligini ta'minlash bo'yicha davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, sifati va tezkorligini oshirishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

2018 yil 15 iyuldan boshlab Mehnat organlari xodimlarining mehnatini rag'batlantirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash jamg'armasi (keyingi o'rinlarda — Mehnatni rag'batlantirish jamg'armasi) mablag'larini shakllantirish manbalari Bandlikka ko'maklashish jamg'armasining Mehnatni rag'batlantirish jamg'armasiga ajratmalari hajmlarining 5 foizdan 10 foizgacha oshirilishi hisobiga kengaytiriladi;

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'larining bo'sh qoldiqlarini tijorat banklaridagi depozitlarga joylashtirishdan tushadigan 50 foiz miqdordagi daromadlar Mehnatni rag'batlantirish jamg'armasiga yo'naltiriladi.

Axborotda 2019 yilda O'zbekistonning ish bilan band bo'lgan aholisining o'rtacha yillik soni 13,5 million kishini tashkil etib, ish bilan ta'minlanganlar soni har yili o'rtacha 300 ming kishiga ko'paygan, mehnat resurslaridan foydalanish darajasi 71,2 foizni tashkil qilishi, shuningdek, ish o'rinlarining to'rtidan uch qismi yuridik

shaxsni tashkil etmasdan faoliyatni amalga oshiruvchi, ro'yxatdan o'tgan kichik biznes, xususiy va yakka tartibdagi tadbirkorlik hisobiga yaratilganligi aytib o'tildi.

Respublika iqtisodiyotining jadal rivojlanishi va maqsadli ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha Dastur vazifalarini bajarish uchun 2030 yilga kelib ish bilan band bo'lganlar sonini 16,7 million kishiga yetkazish, bunda ish bilan band aholining o'rtacha yillik o'sishi 1,6 foizni yoki 245 ming kishini tashkil etishi kutilayotganligi, 2030 yilgacha barcha xotin-qizlar va erkaklarni, shu jumladan, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslarni barqaror va samarali bandlik hamda munosib ish bilan, shuningdek, teng qiymatli mehnat uchun teng ish haqi to'lanishini ta'minlash yo'nalishidagi (8 maqsaddagi 5-vazifa bo'yicha) asosiy muammolaridan biri bu norasmiy bandlik hisoblanib, bugungi kunda noqishloq xo'jaligi sektorlarida norasmiy bandlik ulushi 54,3 foizni tashkil etmoqda. Norasmiy bandlik ulushi erkaklar va ayollarga nisbatan bo'lib, erkaklarning 22,1 foizi norasmiy ish bilan band bo'lsa, ayollarda bu ko'rsatkich atigi 12,5 foizni tashkil qilishi ta'kidlandi.

Bolalar mehnati hamda majburiy mehnatning eng yomon shakllariga yo'l qo'ymaslikni nazorat va monitoring qilishni kuchaytirish yo'nalishida (8-maqsaddagi 7-vazifa bo'yicha) mamlakatimizda 2013 yildan boshlab XMT metodologiyasi va ularning mutaxassislari ishtirokida monitoring qilinayotganligi hamda bu borada yuqori natijalarga erishilgani, ham jamiyatning e'tirofiga sazovor bo'layotganligiga alohida e'tibor qaratildi.

O'tgan yili jami 259 ta holatda majburiy mehnatga yo'l qo'ygan aybdor shaxslarga nisbatan ma'muriy jarimalar



qo'llanilganligi ta'kidlanib, bunday holatlarni bartaraf etish bo'yicha amaliy ishlar yana davom etishi aytib o'tildi.

Ishchi xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish va ular uchun xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlash yo'nalishida (8-maqsaddagi 8-vazifa bo'yicha) ham qator muammolar saqlanib qolinmoqda. Jumladan, hisobotda keltirilganidek birgina 2019 yilda mehnat, bandlik va mehnatni muhofaza qilish bo'yicha 21,2 mingta korxonada 93,7 mingta qonunbuzilish holatlari aniqlangan. Bu borada Kasaba uyushmalari Federasiyasining pandemiya

sharoitida ishchi-xodimlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha olib borayotgan ishlarini yanada jadallashtirish zarurligi deputatlar tomonidan ta'kidlandi.

Tartibga solingan, xavfsiz, boshqariladigan mehnat migrasiyasi va samarali migrasiya siyosatiga ko'maklashish yo'nalishida (10-maqsaddagi 7-vazifa bo'yicha) bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, so'nggi ikki yil davomida tashkillashtirilgan va xavfsiz migrasiyani ta'minlash, mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarini himoya qilish maqsadida o'nga yaqin qonun va qarorlar qabul qilindi.

## References:

1. O'zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida» gi Qonun. (yangi tahrir)//www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2017 yil 25 may, Xalq so'zi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.
4. Ish o'rinlari hisobini yuritish va balansini tuzish Metodikasi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhafaza qilish vazirligi tomonidan 2002 yil 22 fevralda tasdiqlangan.